

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jizzax viloyati kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*





Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **17,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **2,8** mingtaga ko'paygan yoki **13,9 %** ga oshgan.- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar - martida **1,0** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,4 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023 - yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **17433** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1031** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida **224** tani yoki jamiga nisbatan **21,7 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yil yanvar-martida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **14,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan **1,0** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **24,5** birlik, Forish tumanida **14,2** birlik, Arnasoy tumanida **13,6** birlik, Yangiobod tumanida **13,2** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Jizzax shahrida 24,5-birlik
Forish tumani– 14,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Zarbdor tumani 10,3 birlik.
Mirzacho'l– 11,8 birlik.

Eng past ko'rsatkich

G'allaorol tumani-8,9 birlik
Baxmal tumani – 1,7 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **24,5** birlik, Forish tumani 14,2 birlik, Arnasoy tumanida **13,6** birlik, Mirzacho'l tumanida **11,8** birlik, Do'stlik tumanida **10,6** birlik, Paxtakor tumanida **10,6** birlik, Zarbdor tumanida **10,3** birlik kuzatildi.

2023- yil yanvar-martida har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Jizzax shahri
24,5

Forish tumani
14,2

Arnasoy tumani
13,6

Mirzacho'l tumani
13,8

Do'stlik tumani
13,4

Paxtakor tumani
12,2

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- y.		2023- y.
1 113	Jizzax sh.	224
168	Arnasoy	55
341	Baxmal	47
450	G'allaorol	158
585	Sh.Rashidov	104
197	Do'stlik	23
376	Zomin	120
220	Zarbdor	77
104	Zafarobod	33
165	Mirzacho'l	40
216	Paxtakor	42
338	Forish	78
100	Yangiobod	30


2023- yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – **21,7 %**, G'allaorol – **15,3 %**, Zomin – **11,6 %**, Sh.Rashidov – **10,1 %**, Forish – **7,6 %**, Zarbdor – **7,6 %**, hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **332** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **283** ta, sanoatda **188** ta hamda qurilishda **41** ta yangidan tashkil etilgan.


Tumanlar va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida **224** ta, Sh.Rashidov tumanida **104** ta G'allaorol tumanida **158** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yillar davomida jami **5815** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida -**1942** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -**1348** ta, sanoat sohasida - **1135** ta, xizmatlar sohasida -**947** ta, va qurilish sohasida - **443** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq-dan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	278	33,0
Parrandachilik	124	14,7
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	88	10,5
Sabzavotlar etishtirish	157	18,7
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	194	23,1
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	204	45,5
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	61	13,6
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	87	19,4
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	44	9,8
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	52	11,6
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	84	33,3
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	80	32,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	54	22,0
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	17	6,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	10	4,1
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	248	22,9
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	312	28,8
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	103	9,5
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	276	25,5
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	142	13,1
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	247	42,3
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	102	17,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	113	19,3
Avtomobil transportida yuk tashish	51	8,7
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	71	12,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **1942 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5 yilda tashkil etilgan korxonalarining **30,8 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-matr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yil yanvar-martida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,8 %**ni tashkil qilib, 2022 yilga nisbatan **2,8** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,9%** ni, yo'lovchi aylanmasida **98,6 %**ni, yo'lovchi tashishda **98,1 %**ni, qurilishda **95,0 %** ni savdoda **15,8 %**ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm

Jizzax sh.	292,8
Arnasoy	45,2
Baxmal	29,5
G'allaorol	1634,6
Sharof Rashidov	54,3
Do'stlik	28,0
Zomin	58,8
Zarbdor	27,9
Zafarobod	20,0
Mirzacho'l	48,7
Paxtakor	58,4
Forish	90,8
Yangiobod	25,4

2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2414,3** million so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi G'allaorol (**1634,6** mln. so'm), Jizzax shahri (**292,8** mln. so'm), Forish (**90,8** mln. so'm), Zomin (**58,8** mln. so'm) Paxtakor (**58,4** mln. so'm), Sharof Rashidov (**54,3** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Zafarobod tumanida (**20,0** mln. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


Mirzacho'l	100,0
Yangiobod	100,0
Baxmal	100,0
G'allaorol	99,0
Forish	97,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **63,6 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, Mirzacho'l, Yangiobod tumanlari (**100,0 %**), G'allaorol tumani (**99,0%**), Forish tumani (**97,7 %**), Arnasoy tumani (**95,7 %**), Sh.Rashidov tumani (**48,9 %**), Paxtakor tumani (**37,5 %**), va Zomin (**39,5 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **625,6** million so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **95,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **100,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (**285,7** mln. so'm), Sh.Rashidov (**92,9** mln. so'm), Zomin (**58,0** mln. so'm), Paxtakor (**41,3** mlrd. so'm), G'allaorol (**39,7** mlrd. so'm) hamda Baxmal (**26,5** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1454,4** million so'mni yoki jami investitsiya hajmining **79,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **96,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Forish (**839,8** mln. so'm), Jizzax shahri (**140,1** mln. so'm), G'allaorol (**152,3** mln. so'm), Sh.Rashidov (**125,0** mln. so'm), Zomin (**475,3** mln. so'm), hamda Baxmal (**34,2** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



■ hajmi, mlrd. so'm ■ o'sish foizi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **2629,9** mln. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **99,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **120,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Baxmal tumanida (**479,9** mln. so'm), G'allaorol tumanida (**388,1** mln. so'm), Sharof Rashidov tumanida (**284,3** mln. so'm), Zomin tumanida (**364,9** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **246,2** mln. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **15,8 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **136,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mln. so'm

Jizzax sh.	1909,9
Arnasoy	171,9
Baxmal	1392,2
G'allaorol	731,4
Sharof Rashidov	1263,6
Do'stlik	258,4
Zomin	975,9
Zarbdor	229,4
Zafarobod	170,5
Mirzacho'l	224,3
Paxtakor	270,0
Forish	287,1
Yangiobod	73,8

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi G'allaorol (**61,8** mln. so'm) Jizzax shahri (**41,8** mln. so'm), Sh.Rashidov (**30,2** mln. so'm), Forish (**21,3** mln. so'm) va tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1254,7 mln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 58,7 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (323,8 mln. so'm), Sh.Rashidov (236,7 mln. so'm), G'allaorol (139,2 mln. so'm), Zomin (124,7 mln. so'm) va Baxmal (93,3 mln. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **15,45** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **31,9 %** ini tashkil etdi.


2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining



2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Arnasoy, Mirzacho'l, Zafarobod, Paxtakor, Yangiobod, Baxmal tumanlarida – **100,0 %**, Forish tumanida – **92,6 %**, Zomin tumanida – **65,8 %**, G'allaorol tumanida – **41,6 %**, eng past ko'rsatkich Zarbdor tumanida – **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **210,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **96,9** % ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Arnasoy, Baxmal, G'allaorol., Sharof Rashidov, Mirzacho'l, Paxtakor., Forish, Yangiobod tumanlarida **100,0** % ni tashkil etdi.


Jizzax sh.	34,3
Yangiobod	17,3
Forish	16,5
Arnasoy	16,1
Mirzacho'l	14,7
Sh.Rashidov	14,6
Do'stlik	13,6
Paxtakor	12,8
Zarbdor	12,6
Zafarobod	12,2
G'allaorol	10,8
Zomin	10,6
Baxmal	8,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yil yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,1 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **110,9 %** ni tashkil qildi.



Yuk
aylanmasida

2023- yil yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **109,8 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yil yanvar-martida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,1%** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-martida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,6 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **655** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **223 (34,0 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **405 (61,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **27 (4,1%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **35,6 % (233 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,6 % (181 ta)**, sanoatda – **13,7 % (90 ta)**, qurilishda – **10,2 % (67 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **12,8 % (84 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (190 ta), Sharof Rashidov tumanida (93 ta), Forish tumanida (58 ta), Zomin tumanida (44 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **43,0** %ni, xizmatlar sohasida – **20,6** % ni, sanoatda – **14,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **32,6** %ni, xizmatlar sohasida – **30,4** % ni, sanoatda – **13,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **44,4** % ni, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **22,2** % ni, savdoda – **18,5** %ni tashkil etdi.

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **37,2%** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **15,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **24,4 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **34,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **30,4 %** ni, sanoatda – **13,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	24,4	18,2	22,8
Band bo'lganlar soni	16,0	21,4	22,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	19,1	20,4	18,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	18,2	20,7	19,8
Raqobat muhiti	22,3	19,3	15,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	26,1	16,7	20,5
Band bo'lganlar soni	14,5	23,0	20,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	20,0	20,1	15,9
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	18,5	20,7	27,3
Raqobat muhiti	20,9	19,6	15,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli